



MOLIYA VA BANK ISHI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI BANK-MOLIYA AKADEMIYASI ILMIY JURNALI



XORIJY INVESTITSIYALAR O'ZBEKISTON IQTISODIY TARAQQIYOTINING OMILI SIFATIDA

Shagazatov Oybek Baxodirovich

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi "InterForum" DUK direktor o'rinnbosari.

Maqola haqida ma'lumot

Topshirilgan vaqt: 30.07.2024

Qabul qilingan vaqt: 08.08.2024

Tayanch so'z va iboralar: Xorijiy investitsiyalar, iqtisodiy taraqqiyot, to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar, diversifikasiya, raqobatbardoshlik, iqtisodiy o'sish, institutsional muhit.

Annotatsiya

Ushbu maqola xorijiy investitsiyalarning O'zbekiston iqtisodiyotining taraqqiyotiga ta'sirini o'rganadi. Maqolada xorijiy investitsiyalar O'zbekiston iqtisodiyotini diversifikatsiya qilish va uning xalqaro bozorlarda raqobatbardoshligini oshirishda qanday yordam bergani ko'rsatilgan. Shuningdek, xorijiy investitsiyalar orqali yaratilgan yangi korxonalar va loyihalar, mahalliy aholining kasbiy malakasini oshirish va iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishda qanday muhim rol o'ynayotgani tahlil qilingan. Maqola xorijiy investitsiyalar va mamlakatning iqtisodiy rivojlanishidagi institutsional muhit o'rtasidagi aloqalarni ham ko'rib chiqadi.

FOREIGN INVESTMENTS AS A FACTOR IN THE ECONOMIC DEVELOPMENT OF UZBEKISTAN

Shagazatov Oybek Baxodirovich

Deputy Director of "InterForum" under the Administration of the President of the Republic of Uzbekistan

ARTICLE INFO

Received: 30.07.2024

Accepted: 08.08.2024

Key words: Foreign investments, economic development, direct investments, diversification, competitiveness, economic growth, institutional environment.

Abstract

This article explores the impact of foreign investments on the economic development of Uzbekistan. It specifically examines how foreign direct investments have aided in diversifying Uzbekistan's economy and enhancing its competitiveness in international markets. Additionally, the article highlights the role of new enterprises and projects created through foreign investments in enhancing the professional skills of the local population and stimulating economic growth. It also analyzes the relationships between foreign investments and the country's institutional environment that facilitate economic development.

Kirish

Xorijiy investitsiyalar iqtisodiyotining muhim omili bo'lib, mamlakatning global bozorlarda raqobatbardoshligini oshirish, yangi ish o'rnlari yaratish va mamlakat iqtisodiyotini modernizatsiya qilishda katta ahamiyat kasb etadi. Oxirgi yillarda O'zbekiston hukumati xorijiy investorlarni jalb qilish va ular uchun qulay investitsion muhit yaratish maqsadida bir qator islohotlarni amalga oshirdi. Bu islohotlar natijasida xorijiy investitsiyalar hajmi sezilarli darajada oshdi va bu o'sish iqtisodiyotning turli sohalarida kuzatilmogda.

Xorijiy investitsiyalar, ayniqsa to'g'ridan-to'g'ri

investitsiyalar, O'zbekiston iqtisodiyotini diversifikatsiya qilish va uning xalqaro bozorlarda raqobatbardoshligini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Investitsiyalar nafaqat moliyaviy resurslarni taklif etadi, balki zamonaviy texnologiyalar, boshqaruv tajribalari va global bozorlarga kirish imkoniyatlarini ham olib keladi. Bu o'zgarishlar mahalliy korxonalar uchun ham yangi imkoniyatlar yaratadi va ularning mahsulotlari sifatini yaxshilashga yordam beradi.

Xorijiy investitsiyalar orqali yaratilgan yangi korxonalar va loyihalar, nafaqat yangi ish o'rnlarini yaratadi, balki mahalliy aholining kasbiy malakasini oshirishga ham hissa qo'shadi. Bu jarayon iqtisodiy

o'sishni rag'batlantiradi va daromad darajasini oshirishga yordam beradi. O'zbekistonning ko'plab hududlarida xorijiy investitsiyalarni jalg qilish orqali ishsizlik muammosi kamaytirilgan va aholining turmush darajasi yaxhilangan.

Davom etayotgan iqtisodiy islohotlar va xorijiy investitsiyalar orqali amalga oshirilayotgan loyihibar O'zbekiston iqtisodiyotining barqaror o'sishini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Bu jarayonlar nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy taraqqiyotga ham ijobjiy ta'sir ko'rsatmoqda, bu esa mamlakatning kelajakdag'i taraqqiyot yo'lini belgilab beradi.

Adabiyotlar sharti.

Xorijiy investitsiyalar iqtisodiy taraqqiyotning asosiy omillaridan biri sifatida keng qo'llaniladi. Iqtisodiyotga xorijiy kapitalning kirib kelishi yangi texnologiyalar, boshqaruv usulublari va global tarmoqlar orqali raqobatbardoshlikni oshirishga yordam beradi. Solow (1956) o'zining o'sish nazariyasida kapital qo'shilishi iqtisodiyotning umumiy samaradorligini oshirishini ta'kidlagan. Shuningdek, Romer (1990) va Lucas (1988) modellari xorijiy investitsiyalarning texnologik transfer va makroiqtisodiy barqarorlikka qanday hissa qo'shishini tushuntirib beradi.

Xorijiy investitsiyalar iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va mahalliy korxonalarni jahon bozoriga integratsiyalashuv jarayonida muhim rol o'ynaydi. Porter (1990) o'zining raqobatbardoshlik nazariysi doirasida xorijiy investitsiyalarni mamlakatning sanoat tarmoqlarini yangilash va xalqaro bozorlarda raqobat qilish qobiliyatini oshirish omili sifatida qaraydi. Bu investitsiyalar, shuningdek, mamlakatning eksport salohiyatini kengaytirish va tashqi savdo balansini yaxhilashga yordam beradi.

Empirik tadqiqotlar, shu jumladan Lorentzen, Javorcik va Smarzynska (2005) tomonidan olib borilgan ishlari, xorijiy investitsiyalarning iqtisodiy o'sishga ijobji ta'sirini ko'rsatadi. Ular o'z tadqiqotlarida xorijiy investitsiyalar mahalliy korxonalar uchun yangi bozorlarga kirish, ilg'or texnologiyalar va menejment amaliyotlarini olib kirish orqali yordam berishini aniqlashgan. Shu bilan birga, Alfaro va boshq. (2004) xorijiy investitsiyalarning iqtisodiy taraqqiyotga ta'siri mamlakatning institutsional muhitiga bog'liq ekanligini ta'kidlashadi.

Bir qator empirik tadqiqotlar xorijiy investitsiyalar va iqtisodiy o'sish o'rtaisdagi ijobji bog'liqlikni ko'rsatgan. Blomstrom, Lipsey va Zejan (1994) o'z tadqiqotlarida xorijiy investitsiyalarning ishlab chiqarish samaradorligiga ijobji ta'siri borligini aniqlashgan. Shu bilan birga, Borensztein, De Gregorio va Lee (1998) tadqiqotida xorijiy investitsiyalar ta'lim darajasining yuqori bo'lgan mamlakatlarda iqtisodiy o'sishga ko'proq ijobji ta'sir ko'rsatishi aniqlangan, bu mamlakatning ta'lim

tizimi xorijiy texnologiyalar va bilimlarni samarali o'zlashtirish qobiliyatiga bog'liq ekanligini ko'rsatadi.


Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot ish jarayonida O'zbekiston iqtisodiyotida xorijiy investitsiyalar ta'sirini o'rganishda ilmiy usullar qo'llanilgan. Bu usullar orasida umumlashtirish, guruhlashtirish, tahlilning mantiqiy va taqqoslama usullari, qiyosiy tahlil hamda istiqbolli prognozlash kabi metodlar mavjud. Tadqiqotda ma'lumotlarni tahlil qilish va turli iqtisodiy omillar o'rtaisdagi bog'liqliklarni aniqlash maqsadida bu usullar samarali qo'llanilgan. Xususan, xorijiy investitsiyalar hajmi va iqtisodiy o'sish darajasi o'rtaisdagi munosabatlar mantiqiy va qiyosiy tahlil yordamida o'rganilgan. Shuningdek, bu investitsiyalar kelajakdag'i iqtisodiy o'sishga ta'sirini prognoz qilish uchun istiqbolli prognozlash usuli qo'llanilgan. Bu yondashuvlar, O'zbekiston iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarning ta'sirini chuqurroq tushunish va bu ta'sirni kuchaytirish bo'yicha strategiyalar ishlab chiqishga yordam beradi.

Tahlil va natijalar muhokamasi

So'nggi bir necha yil ichida O'zbekiston jadal iqtisodiy o'zgarishlarni boshdan kechirdi va xalqaro hamjamiyatda biznes va investitsiyalar uchun turli xil to'siqlarini bartaraf etishda ochiqlik, yangilanish va qat'iyatlilik ramzlaridan biri sifatida tobora ko'proq namoyon bo'lmoqda. Bugungi kunda milliy iqtisodiyotning integratsiyalashuv jarayonlari hamda mamlakatlar o'rtaisdagi ixtisoslashuvning kuchayib bormoqda. Respublikamizda ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda amalga oshirilayotgan islohotlar, shubhasiz, o'z navbatida, xorijiy mamlakatlar bilan aloqalarni mustahkamlashni, xususan, o'zaro iqtisodiy munosabatlarni takomillashtirishni, ular bilan teng huquqli va ikki tomonlama manfaatli hamkorlikni yo'lga qo'yishni taqozo etadi. Jahan tajribasi shuni ko'rsatadiki, chet el investitsiyalarini jalg qilish va ulardan foydalanish iqtisodiyotni rivojlantirishga zamin yaratadi va ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar uchun kuchli rag'batlantiruvchi omil bo'lib xizmat qiladi. Shu sababli ham hamkorlikning muhim shakllaridan biri xorijiy investitsiyalarni jalg qilish hisoblanadi.

Xorijiy investitsiyalar chet el investorlari tomonidan yuqori darajada daromad olish, samaraga erishish maqsadida mutlaq boshqa davlat iqtisodiyotining, qonun bilan ta'qilganmagan tadbirkorlik va boshqa faoliyatlariga safarbar etadigan barcha mulkiy, moliyaviy, intellektual boyliklaridir. Chet el investitsiyalari ichki investitsiyalardan farqli holda tashqi moliyalashtirish manbaiga kiradi (1-rasm).




1-rasm. O'zbekistonda xorijiy investitsiyalari kiritish shakllari tavsifi.

Manba: muallif tomonidan tayyorlandi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan faol investitsiya siyosati asosida iqtisodiyotni modernizatsiyalash, texnik va texnologik qayta jihozlash, zamonaviy, yuksak texnologiyalarga asoslangan ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash ishlari jadallashtirilmoqda.

Mamlakat iqtisodiyotini modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash, iqtisodiyot tarmoqlarining raqobatbardoshligini oshirish, mahalliy ishlab chiqarish korxonalarining eksportdag'i hajmini kengaytirishga qaratilgan investitsiya faoliyatini tartibga soluvchi 50 dan ortiq huquqiy hujjatlar qabul qilindi, jumladan, O'zbekiston Respublikasining "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi Qonun, "O'zbekiston Respublikasining 2023-2025-yillarga mo'ljallangan investitsiya dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari

to'g'risida"gi Prezident qarori, "O'zbekiston Respublikasining 2022-2026 yillarga mo'ljallangan investitsiya dasturini tasdiqlash hamda investitsiya loyihibarini boshqarishning yangi yondashuv va mehanizmlarini joriy etish to'g'risida"gi Prezident qarori, "Respublika hududlarida innovatsiya va investitsiya faoliyatini jadallashtirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi Vazirlar Mahkamasining qarori, "O'zbekiston Respublikasining to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar jamg'armasi faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident Farmoni ayni shu maqsadga xizmat qilmoqda. Respublikamiz iqtisodiyotida investitsiyalarning so'nggi 10 yildagi o'sish sur'atlari turlicha bo'lib, oldingi yillarga nisbatan o'sish va pasayish tendensiyalari kuzatilmoqda (2-rasm).




2-rasm. Investitsiya hajmining YAIMdagi ulushi dinamikasi

Manba: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

Statistik tahlillarni milliy valyutamiz misolida davom ettiradigan bo'lsak, rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, 2022-yilning yanvar-dekabr oylarida jami 269,9 trln. so'm asosiy kapitalga investitsiyalar o'zlashtirilib, 2021-yilning mos davriga nisbatan 100,9 % ni tashkil etdi. Asosiy kapitalga investitsiyalarning tarkibida 59,1 % yoki 159,6 trln. so'm investitsiyalar jalb etilgan mablag'lar hisobidan moliyalashtirilgan bo'lsa, korxona, tashkilot va aholining

o'z mablag'lari hisobidan 40,9 % yoki 110,3 trln. so'm moliyalashtirildi.

Shuningdek, markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi 41,5 trln. so'mni tashkil etgan bo'lsa, markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan 228,4 trln. so'm investitsiyalar o'zlashtirildi (3-rasm).




3-rasm. Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar

Manba: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

Hozirgi globallashuv sharoitida bozor munosabatlari talablaridan kelib chiqib, jahonda investitsiyalar uchun keskin kurash davom etmoqda. Tashqi iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirish, mamlakatimiz iqtisodiyotiga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning jalb qilinishini ta'minlaydigan huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa shart-sharoitlarni takomillashtirish, xorijiy investitsiyalarni keng jalb etish, mablag'larni eng ustuvor yo'nalishlarda hamda raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish bilan bog'liq yo'nalishlarda mujassam qilish

respublikada o'tkazilayotgan investitsiya siyosatining tamoyillaridir (Maxmudov, 2010).

Mamlakatimiz iqtisodiyotiga jalb etilayotgan investitsiyalar manbalari va ulardan foydalanish borasida ijobjiy sifat o'zgarishlari ro'y bermoqda. 2022 - yilda umumiy investitsiyalar hajmida davlat budgeti mablag'lari 84,4%, O'zbekiston Respublikasi kafolati ostida xorijiy kreditlar 74,9%, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar 110,7%, korxonalar va aholi mablag'lari mos ravishda 110,6 va 103,2 foiz o'sishni tashkil etgan (4-rasm).



4-rasm. Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar, trln so'mda va %da

Manba: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

Investitsiya bozori infratuzilmasini shakllantirishda iqtisodiy subyektlarning investitsiya va moliyaviy ehtiyojlariga xizmat ko'sratish bo'yicha keng imkoniyatlarga ega bo'lgan tijorat banklari, bankdan tashqari moliyaviy tashkilotlar, investitsiya fondlari va boshqa moliyaviy vositachilar muhim rol o'ynaydi. 2022-yilning yanvar-dekabr oylarida korxona va tashkilotlarning o'z mablag'lari hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalar – 84,5

trln. so'm yoki jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 31,3 % ini tashkil etdi. Aholi mablag'lari hisobidan jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 9,5 foizi yoki 25,8 trln. so'mni o'zlashtirildi. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hisobidan o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 37,0 trln. so'mni tashkil etdi va jami investitsiyalardagi ulushi 2021-yildagi ko'rsatkichga nisbatan 1,2 % punktga ko'payib, 13,7 % ni tashkil etdi.

1-jadval

2022 — 2026-yillarda markazlashgan va markazlashmagan investitsiyalarni o'zlashtirishning yig'ma maqsadli ko'rsatkichlari, mlrd. so'm

T/r	Moliyalashtirish manbalari	2022 - 2026-yillarda jami	shundan:				
			2022-yil	2023-yil	2024-yil	2025-yil	2026-yil
	Jami kapital qo'yilmalar	2 025 200	298 772	346 848	400 318	457 659	521 603
	shu jumladan:						
1.	Markazlashgan investitsiyalar:	344 309	50 767	61 480	72 378	76 106	83 579
1.1.	Budjet mablag'lari	136 669	23 790	25 017	28 074	29 400	30 388
1.2.	O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi mablag'lari (so'mda)	17 614	1 613,2	3 100	3 450	4 514	4 937
	mln. AQSh dollarida	1 352	142*	258	271	335	345
1.3.	O'zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar (so'mda)	190 027	25 363	33 364	40 854	42 192	48 255
	mln. AQSh dollarida	14 738	2 240	2 780	3 212	3 129	3 376
2.	Markazlashmagan investitsiyalar:	1 680 891	248 006	285 368	327 940	381 553	438 024
2.1.	Korxona mablag'lari, shu jumladan, korxonalarining o'z ixtiyorida qoldiriladigan soliqlar	478 234	69 433	76 926	92 465	110 384	129 026


2.2.	Tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag'lari	338 864	49 606	53 696	64 861	79 242	91 458
2.3.	To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va kreditlar (so'mda)	714 278	107 621	130 186	141 024	157 094	178 353
	mln. AQSh dollarida	55 572	9 506	10 849	11 087	11 651	12 479
2.4.	Aholi mablag'lari	149 515	21 346	24 560	29 590	34 833	39 187

Manba: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

Bundan tashqari, Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasining 300 mln. dollarga teng mablag'lari "Olmaliq KMK" Ajning ustav jamg'armasiga loyihalarni moliyalashtirish uchun yo'naltiriladi.

Izoh. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining va Vazirlar Mahkamasining qarorlari asosida hamda har yilgi

tasdiqlanadigan tarmoqlar va hududlarning rivojlanish konsepsiylari asosida aniqlashtirilishi va yangilanishi mumkin. Tahlillar O'zbekistonda jamg'arish normasi bilan yalpi ichki mahsulotning o'sish sur'atlari o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri bog'lilik mavjudligini ko'rsatmoqda (5-rasm).



5-rasm. O'zbekistonda yalpi jamg'arma normasi va yalpi ichki mahsulot real o'sishining o'zgarishi, % da

Manba: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

Mustaqillik yillarida faol investitsion siyosat olib borilishi natijasida iqtisodiyotda o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 17 martadan ziyod oshgan, 2007-2022 yillarda jami 269,9 mlrd.so'mdan ziyod investitsiyalar o'zlashtirilishiga olib keldi.

Shuni ta'kidlash kerakki, asosiy kapitalga samarasiz investitsiyalar asosiy kapitaldan past qaytinga olib keldi va buning oqibati sifatida tashqi investorlarni jalb qilishni rag'batlantirmadi. 2022-yilda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar tarkibida ishlab chiqarishni modernizatsiyalash va yangilash, texnik va texnologik qayta jihozlashga xarajatlar barqaror 28,3% bilan ustunlik qildi. Bunda asosiy kapitalga investitsiyalarining asosiy qismi iqtisodiyotning birlamchi va ikkilamchi sektorlarini rivojlantirishga yo'naltirilib, ularning xom ashyoga yo'naltirilganligi bilan bog'liq ravishda, qo'shilgan qiyamatlar ulushi iqtisodiyotning yuqori texnologiyali tarmoqlariga nisbatan ancha past.

Xulosa

Xulosa qilib aytish mumkinki, xorijiy investitsiyalarini faollashtirish uchun biznesning investisiya va innovatsion faoliyatiga to'sqinlik qilayotgan muammolarni endi oddiy

vositalar bilan, ya'ni imtiyozlar berish yoki yangi deklarativ me'yirlarni nashr etish bilan hal qilishning imkonи yo'q. Tadbirkorlik faoliyatini erkinlashtirish va biznes bilan doimiy muloqot o'rnatish orqali, muayyan sektorlarning rivojlanishiga to'sqinlik qiladigan to'siqlarni aniqlash va yengib o'tish zarur. Shu munosabat bilan quyidagi yo'nalishlar bo'yicha faol ish olib borish orqali O'zbekiston iqtisodiyotida xorijiy investitsiyalarini ko'paytirish mumkin:

1. Birinchidan, iqtisodiy o'sishning yuqori va barqaror sur'atlarini saqlab qolish uchun mamlakat iqtisodiyotini raqobatbardosh qilish va bank tizimi aktivlarining katta qismi xususiy investorlar qo'lida bo'lgan modelni shakllantirish zarur.

2. Ikkinchidan, investisiyaviy jozibadorlikni oshirish va infratuzilmaga yo'naltirilgan investitsiyalarining jadal o'sishini ta'minlash maqsadida davlat-xususiy sheriklik va loyihalarni moliyalashtirish vositalarini rivojlantirish orqali investisiyaviy faoliyatni rag'batlantirish kerak.

3. Uchinchidan, raqamlashtirish va davlat xizmatlarini masofaviy taqdim etish orqali investisiya loyihalarini amalga oshirishda byurokratik to'siqlar va

cheklovlarini to'liq bartaraf etish, shaffoflikni maksimal darajada ta'minlash va korrupsiyaning oldini olish uchun xorijiy investorlarning murojaatlari va so'rovlar bilan ishlashni tashkil etish sifatini yaxshilash.

4. To'rtinchidan, ish kuchi va kapitalning iqtisodiyotning qonuniy sektorlaridan yashirin iqtisodiyotga oqib ketishiga olib keladigan tranzaksiya xarajatlarining kamaytirilishi.

5. Beshinchidan, kelajakda texnologik yutuqlarga erishish nuqtasiga aylanishi va keyingi 20-30 yil davomida mamlakat ishlab chiqarish quvvatlarini rivojlanishi uchun zamin yaratishi mumkin bo'lgan O'zbekistonning eng istiqbolli sohalariga yo'naltirilgan investisiya siyosati strategiyasini ishlab chiqish. Investisiya muhitini mamlakatdagi barcha faoliyat sohalariga ta'sir ko'rsatishini inobatga olgan holda, islohotlar ko'lami iqtisodiy, institusional, ta'lim, sog'liqni saqlash, qishloq xo'jaligi, suv ta'minoti, energetika, transport va boshqa yo'nalishlarni qamrab oladi.

Umuman olganda, O'zbekiston iqtisodiyotida xorijiy investitsiyalarni jalg qilish va samarali foydalanish orqali iqtisodiy o'sishni ta'minlash va mamlakatni modernizatsiyalash yo'lidagi muhim qadam qo'yilishi mumkin. Tadbirkorlik muhitini yaxshilash, davlat va xususiy sektor o'rtaqidagi hamkorlikni kuchaytirish, shuningdek, investitsiyaviy faoliyatni rag'batlantirish choralarini xorijiy kapital oqimini oshirish va iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga zamin yaratadi. Bu jarayonlar nafaqat makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni yaxshilaydi, balki aholi turmush darajasining oshishiga ham ijobjiy ta'sir ko'rsatadi, bu esa O'zbekistonning jahon iqtisodiy tizimida o'z o'rnini mustahkamlashga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Solow, R. M. (1956). A Contribution to the Theory of Economic Growth. *Quarterly Journal of Economics*, 70(1), 65-94.
2. Romer, P. M. (1990). Endogenous Technological Change. *Journal of Political Economy*, 98(5), S71-S102.
3. Lucas, R. E. (1988). On the Mechanics of Economic Development. *Journal of Monetary Economics*, 22(1), 3-42.
4. Lorentzen, P., Javorcik, B. S., & Smarzynska, B. K. (2005). Globalization and Innovation in Emerging Markets. *American Economic Review*, 95(2), 294-308.
5. Alfaro, L., Chanda, A., Kalemli-Ozcan, S., & Sayek, S. (2004). FDI and Economic Growth: The Role of Local Financial Markets. *Journal of International Economics*, 64(1), 89-112.
6. Porter, M. E. (1990). *The Competitive Advantage of Nations*. New York: Free Press.
7. Blomstrom, M., Lipsey, R. E., & Zejan, M. (1994). What Explains Developing Country Growth? NBER Working Paper Series, no. 4132.

8. Borensztein, E., De Gregorio, J., & Lee, J.-W. (1998). How Does Foreign Direct Investment Affect Economic Growth? *Journal of International Economics*, 45(1), 115-135.
9. Maximov N.M., Madjidov Sh.A. Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish. O'quv qo'llanma. - T.: TDIU, 2010. 86-b.